Abstract. *This article analyzes cases of violation of procedural deadlines in judicial practice and their significance as a factor leading to the cancellation of court decisions. In the research work, it is substantiated that non-compliance with procedural deadlines leads to unjustified prolongation of court cases, restriction of procedural rights, and, as a result, cancellation or modification of court decisions in the appellate and cassation instances. The relevance of the research is explained by the fact that in judicial practice, due to violations of the deadlines for consideration of cases; the lack of a unified approach to the issue of restoring missed deadlines; and the uneven application of procedural norms, the stability of court decisions is not sufficiently ensured. The main goal of the research is to identify the causes of violations of procedural deadlines and to reveal the impact of such violations on the annulment of court decisions, as well as to develop scientifically based proposals aimed at strengthening procedural discipline in judicial practice. In the research process, methods of normative-legal analysis, comparative-legal method, study of judicial practice, and doctrinal analysis were used. The article identifies the organizational, subjective, and legal factors of violation of procedural deadlines and analyzes the workload of judges, the procedural actions of the participants in the process, and the lack of regulatory and legal clarity as the main reasons leading to the cancellation of court decisions. A comparative analysis with the judicial practice of Germany and the Netherlands shows that strict adherence to procedural deadlines is important in ensuring the stability of court decisions. Based on the*

research results, proposals were put forward for digital monitoring of procedural deadlines, clarifying the criteria for restoring deadlines, optimizing the workload of judges, and strengthening responsibility for procedural abuses. These conclusions can serve to improve judicial practice and reduce the cancellation of court decisions.

Keywords: *procedural deadlines, civil proceedings, judicial practice, procedural discipline, judicial efficiency, legal certainty, restoration of deadlines*

Kirish

Fuqarolik protsessida protsessual muddatlar instituti sud ishlarini yuritishning eng muhim va ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muddatlar sud jarayoni-ning izchil, tartibli va samarali tashkil etilishini ta'minlaydi, ishlarning asossiz cho'zib yuborilishining oldini olishga xizmat qiladi. Protsessual muddatlar sud va protsess ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning aniq muddatlarini belgilaydi, bu esa sud ishlarini oqilona muddatlarda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Sud qarorlarining qonuniyligi va asosligini ta'minlashda muddatlarga qat'iy rioya qilish muhim rol o'ynaydi. Chunki protsessual harakatlarning belgilangan muddatda amalga oshirilishi taraflarning teng huquqliligi prinsipini ro'yobga chiqaradi, ularga o'z huquq va manfaatlarini to'liq va samarali himoya qilish imkonini beradi. Aksincha, muddatlarning buzilishi ba'zi taraflarning protsessual ustunlikka ega bo'lishiga, boshqalari esa o'z huquqlaridan to'liq foydalana olmasligiga olib kelishi mumkin. Bu holat odil sudlov tamoyillariga zid bo'lib, sud jarayonida muvozanat buzilishiga olib keladi (Tsukanov, 2022).

Sud amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, protsessual muddatlarga rioya qilmaslik ko'plab salbiy oqibatlarga olib keladi. Xususan, ishlarni belgilangan muddatlarda ko'rib chiqmaslik sud muhokamasining cho'zilishiga olib keladi, bu esa fuqarolarning sud himoyasidan o'z vaqtida foydalanish huquqini cheklaydi. Natijada sud qarorlarining barqarorligi pasayadi, ayrim hollarda esa ishlar yuqori turuvchi sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi yoki bekor qilinadi.

Bundan tashqari, protsessual muddatlarning buzilishi ham sud tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib keladi. Fuqarolar sud muhokamasining asossiz ravishda cho'zilayotgani, qarorlar keyinga surilayotgani yoki muddatlarga turlicha yondashilayotganini ko'rganda, sud hokimiyatining samaradorligi va adolatliligiga shubha bilan qaray boshlaydi. Shu bois protsessual muddatlarga rioya qilmaslik oqibatlarini nafaqat protsessning alohida ishtirokchilarining huquq va manfaatlariga, balki sud hokimiyatining obro'si va nufuziga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, fuqarolik protsessida protsessual muddatlar institutining samarali ishlashini ta'minlash, ularning buzilishiga olib kelayotgan sabablarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, muddatlarga rioya qilinishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish bugungi sud-huquq islohotlarining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Metodlar

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida fuqarolik protsessida protsessual muddatlarning buzilishi va uning sud qarorlariga ta'sirini har tomonlama va chuqur o'rganish maqsadida kompleks ilmiy metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot metodologiyasi huquqiy hodisalarni tizimli, mantiqiy va qiyosiy tahlil qilishga asoslangan bo'lib, nazariy xulosalar va amaliy materiallar uyg'unlikda olib borilgan.

Avvalo, normativ-huquqiy tahlil metodi qo'llandi. Ushbu metod yordamida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining protsessual muddatlarga oid normalari, ularning mazmuni, qo'llanish

mexanizmlari hamda sud amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolar o'rganildi. Shuningdek, odil sudlovni amalga oshirishda oqilona muddat tamoyiliga oid xalqaro-huquqiy normalar va xalqaro standartlar tahlil qilinib, milliy qonunchilik bilan taqqoslandi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil metodi muhim o'rin egalladi. Mazkur metod yordamida Germaniya, Rossiya va Fransiya fuqarolik protsessida protsessual muddatlarning belgilanishi, ularga rioya etilishi, muddatlar buzilishining huquqiy oqibatlarini o'rganilgan. Ushbu mamlakatlar tajribasini tahlil qilish orqali protsessual intizomni ta'minlashning samarali mexanizmlari aniqlandi va ularni milliy sud tizimida qo'llash imkoniyatlari baholandi.

Bundan tashqari, sud amaliyotini tahlil qilish metodi qo'llanib, O'zbekiston sudlarining protsessual muddatlarni buzish bilan bog'liq qarorlari o'rganildi. Sud qarorlarini tahlil qilish orqali muddatlarning buzilishiga olib keladigan asosiy omillar, sudlarning ushbu ishlarga munosabati va qarorlarning barqarorligiga ta'siri aniqlandi. Bu metod tadqiqotning amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida doktrinal tahlil metodidan foydalanildi. Fuqarolik protsessual huquqi sohasidagi yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, konseptual yondashuvlari va xulosalari umumlashtirildi. Doktrinal tahlil orqali protsessual muddatlar institutining nazariy asoslari chuqurlashtirilib, mavjud ilmiy yondashuvlar tanqidiy ko'rib chiqildi (European Court of Human Rights, 2010).

Yuqorida keltirilgan metodlarning kompleks qo'llanishi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, muammoni nazariy va amaliy jihatdan har tomonlama yoritish imkonini berdi.

Natijalar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari fuqarolik protsessida protsessual muddatlarga rioya qilinmasligi tizimli muammo ekanini

ko'rsatdi. Sud amaliyoti tahlili shuni tasdiqlaydiki, muddatlarning buzilishi ko'pincha ishlarning asossiz cho'zilishiga, protsessual huquqlarning to'liq amalga oshirilmasligiga hamda sud qarorlarining qayta ko'rib chiqilishiga olib kelmoqda.

Aniqlanishicha, protsessual muddatlarning buzilishi sud qarorlarining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, apellyatsiya va kassatsiya instansiyalarida qarorlarning bekor qilinishi yoki o'zgartirilishiga sabab bo'layotgan holatlarning muhim qismi aynan protsessual muddatlarga rioya etilmasligi bilan bog'liq. Bu esa sud amaliyotida huquqiy aniqlik va izchillik tamoyillarining yetarli darajada ta'minlanmayotganidan dalolat beradi.

Tadqiqot davomida protsessual muddatlar buzilishining uchta asosiy guruhi – tashkiliy, subyektiv va huquqiy omillar mavjudligi aniqlanib, ularning har biri sud faoliyati samaradorligiga turlicha darajada ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Xususan, sudyalarning ish yuklamasining yuqoriligi va ekspertiza jarayonlarining sustligi tashkiliy omillar sifatida ustuvor ahamiyat kasb etishi aniqlandi.

Shuningdek, sud jarayonini qasddan cho'zishga qaratilgan xatti-harakatlar va normativ-huquqiy aniqlikning yo'qligi protsessual muddatlar intizomini zaiflashtiruvchi asosiy omillar sifatida qayd etildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu omillarni bartaraf etmasdan turib, sud qarorlarining barqarorligini ta'minlash qiyin.

Muhokama

Fuqarolik protsessida protsessual muddatlarga rioya qilmaslik sud jarayonining umumiy samaradorligiga bevosita va sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, protsessual harakatlarning belgilangan muddatda amalga oshirilmasligi ishlarning o'z vaqtida ko'rilishiga to'sqinlik qiladi, sud muhokamasining asossiz ravishda cho'zilishiga olib keladi, sud qarorlarining barqarorligini pasaytiradi. Natijada fuqarolarning o'z huquqlari va

qonuniy manfaatlarini sud orqali o'z vaqtida himoya qilish imkoniyati cheklanmoqda, bu esa odil sudlovning asosiy tamoyillariga zid bo'lgan vaziyatni yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, protsessual muddatlarning buzilishi alohida yoki tasodifiy holatlar bilan izohlanmaydi. Aksincha, mazkur muammo tizimli xarakterga ega bo'lib, uning ortida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir qator omillar majmui mavjud. Sud qarorlarini, ish yuritish materiallarini va amaliy statistik ma'lumotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, muddatlarning buzilishi ko'pincha bir nechta omillarning bir vaqtda namoyon bo'lishi natijasida yuzaga keladi (Kuchkarov, 2019).

Ilmiy tadqiqotlar va sud amaliyotidan kelib chiqib, mazkur omillarni uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: *tashkiliy, subyektiv va huquqiy omillar*. Ushbu tasnif muammoni tizimli tahlil qilish, uning yuzaga kelish sabablarini aniq belgilash va samarali yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Tashkiliy omillar sud tizimining ichki faoliyati bilan bog'liq bo'lib, sudyalarning ish yuklamasining yuqoriligi, ishlarni taqsimlash mexanizmlarining yetarli darajada samarali emasligi, sud jarayonlarining to'liq raqamlashtirilmaganligi, ekspert va boshqa yordamchi muassasalar faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda. Bu omillar ko'p hollarda sud muhokamasining cho'zilib ketishiga, protsessual muddatlarning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Protsessual muddatlarga rioya etilmasligining asosiy sabablaridan biri sud tizimida mavjud bo'lgan tashkiliy muammolar bilan bog'liqdir. Eng avvalo, sudyalarning ish yuklamasining haddan tashqari yuqoriligi sud ishlarini belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida bitta sudyaga bir vaqtning o'zida birlashtirilgan ishlar soni ko'plab rivojlangan davlatlar ko'rsatkichidan sezilarli darajada yuqori. Natijada sudya ishlarni chuqur va o'z

vaqtida ko'rib chiqishga ulgurmaydi, bu esa ish yuritish muddatlarining cho'zilishiga olib keladi.

Shu bilan birga, sud ish yurituvining raqamli texnologiyalar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot tizimlarining to'liq integratsiyalashmagani, ayrim protsessual jarayonlarning hanuzgacha an'anaviy, qo'lda bajarilishi hamda muddatlar tugashi haqida sudya va protsess ishtirokchilarini avtomatik xabardor qiluvchi mexanizmlarning mavjud emasligi muddatlar o'tib ketishini o'z vaqtida aniqlash imkoniyatini cheklamoqda.

Bundan tashqari, sud jarayonlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ekspertiza institutining faoliyatida ham qator muammolar mavjud. Ko'plab fuqarolik ishlarida ekspert xulosasi hal qiluvchi dalil sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ekspert muassasalarining moddiy-texnik imkoniyatlari cheklanganligi, mutaxassislarining ortiqcha yuklamasi hamda ayrim hollarda malaka yetishmasligi ekspert xulosalarining belgilangan muddatdan kech tayyorlanishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat sud ishlarining uzoq muddatga cho'zilib ketishiga, ayrim hollarda esa ishlarning yillar davomida yakunlanmasligiga olib keladi.

Subyektiv omillar esa protsess ishtirokchilarining xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lib, taraflarning jarayonni ataylab cho'zishga urinishi, advokatlar yoki vakillarning protsessual majburiyatlarni lozim darajada bajarmasligi, dalillarni o'z vaqtida taqdim etmaslik holatlari orqali namoyon bo'ladi. Bunday xatti-harakatlar sud jarayonining muvozanatini buzib, sudning tezkor va adolatli qaror qabul qilishiga to'sqinlik qiladi.

Protsessual muddatlarning buzilishi nafaqat sud tizimining tashkiliy holatiga, balki sud protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning xatti-harakatlariga ham bevosita bog'liq. Mazkur omillar orasida taraflarning sud jarayonini qasddan sekinlashtirishga qaratilgan harakatlari alohida e'tiborga loyiq. Ayrim hollarda taraflar vaqtni tejash, hal qiluv qarorining

ijrosini kechiktirish yoki protsessual ustunlikka erishish maqsadida sud jarayonini sun'iy ravishda uzaytirishga harakat qilishadi.

Shuningdek, vakillar va advokatlarning protsessual majburiyatlarga nisbatan yetarlicha javobgar emasligi muddatlarning buzilishiga olib kelmoqda. Dalillarni belgilangan vaqtda taqdim etmaslik, sud majlisiga uzrsiz sabablarga ko'ra kelmaslik, huquqiy yordamni lozim darajada ko'rsatmaslik natijasida sud muhokamasini kechiktirish holatlari kuzatilmoqda. Bunday harakatlar nafaqat sud jarayonining tezligini pasaytiradi, balki sudning obyektiv va adolatli qaror qabul qilish imkoniyatini ham cheklaydi.

Huquqiy omillar esa amaldagi qonunchilikdagi normativ aniqlikning yetishmasligi bilan bog'liqdir. Xususan, protsessual muddatlarni tiklash mezonlarining aniq belgilanmaganligi, ayrim normalarning turlicha talqin qilinishi sudlar amaliyotida bir xillikning yo'qligiga olib keladi. Bu esa huquqiy barqarorlik va sud qarorlarining izchilligi tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Protsessual muddatlarga rioya qilmaslikka olib keluvchi yana bir muhim omil amaldagi normativ-huquqiy tartibga solishdagi aniqlik yetishmasligi bilan izohlanadi. Xususan, muddatlarni tiklash to'g'risidagi normalarning umumiy xususiyatga ega ekanligi ularni sudlar tomonidan turlicha talqin qilinishiga zamin yaratadi. Fuqarolik protsessual kodeksida muddatlarni tiklashning asosiy qoidalari belgilangan bo'lsa-da, "uzrli sabab" tushunchasining aniq huquqiy mezonlari mavjud emasligi sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim protsessual normalarning sharhlash uchun ochiqligi bir xil huquqiy vaziyatlarda turli sudlar tomonidan bir-biridan farq qiluvchi qarorlar qabul qilinishiga olib keladi. Bu sud qarorlarining izchilligi va huquqiy barqarorligi tamoyillariga putur yetkazishi, fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini susaytirishi mumkin.

Shu sababli, protsessual muddatlarning buzilishi masalasi nafaqat alohida protsessual kamchilik, balki sud tizimi faoliyati samaradorligi va odil sudlovni ta'minlash bilan bevosita bog'liq murakkab muammo sifatida baholanishi lozim.

Xorijiy davlatlar sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, protsessual muddatlarga qat'iy rioya etish sud tizimi samaradorligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Yevropa mamlakatlari tajribasida sud jarayonlarini oqilona muddatlarda yakunlashga alohida e'tibor qaratiladi. Germaniya va Niderlandiya kabi davlatlarda fuqarolik ishlari, qoida tariqasida, nisbatan qisqa muddatda – o'rtacha bir necha oy davomida ko'rib chiqiladi. Bunday natijalarga erishishda sud ish yurituvini raqamlashtirishning yuqori darajasi, axborot tizimlarining uzluksiz ishlashi, ekspertiza muassasasining tezkor ishlashi, sudyalarning ish yuklamasining mutanosib taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi.

MDHga a'zo davlatlarda fuqarolik sud ishlarini yuritishda axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar Y.Y. Gribanov (2007) tomonidan "Fuqarolik va arbitraj jarayonida soddalashtirilgan tartibda ish yuritish: Rossiya va Germaniya huquqiy tizimining qiyosiy tahlili" mavzusidagi dissertatsiyasida tadqiq etilgan. M.A. Mitrofanova "Elektron dalillar va arbitraj muhokamasida bevositalik prinsipi" mavzusida (2013), E.V. Zaychenko esa "Fuqarolik va arbitraj jarayonida axborot ta'minoti" mavzusida (2013), A.Y. Lazarev esa "Arbitraj muhokamasida elektron hujjat aylanishidan foydalanishda axborotni himoya qilishni huquqiy ta'minlash" mavzusida tadqiqotlar olib borgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarda protsessual muddatlar ustidan doimiy monitoring olib borilishi, muddatlarning buzilishi esa istisno holat sifatida baholanadi. Sud jarayonining har bir bosqichi aniq vaqt chegaralari bilan belgilanib, ushbu chegaralarning buzilishi sudyalarning va boshqa mas'ul shaxslar faoliyatiga baho berishda inobatga olinadi.

Natijada sud qarorlarining barqarorligi va huquqiy aniqlik yuqori darajada ta'minlanadi.

O'zbekiston sud amaliyotida fuqarolik ishlarini ko'rish muddati ko'pincha ancha uzoq bo'ladi. Amaliyotda ishlarni olti oy va undan ortiq muddatda ko'rib chiqish holatlari uchrab turadi. Ba'zi murakkab ishlarda sud jarayoni yanada uzoqroq davom etishi mumkin. Bu holat bitta omil bilan emas, balki tashkiliy kamchiliklar, protsess ishtirokchilarining subyektiv xatti-harakatlari hamda normativ-huquqiy tartibga solishdagi muammolarning birgalikdagi ta'siri bilan izohlanadi.

Shu bois, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, protsessual muddatlar intizomini kuchaytirish sud tizimining ishonchliligi va samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Sud jarayonlarini oqilona muddatlarda yakunlash nafaqat fuqarolarning sud himoyasiga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi, balki sud hokimiyatining nufuzi va adolatli sudlov tamoyillarining to'liq ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari fuqarolik protsessida protsessual muddatlarga rioya qilinmasligi sud faoliyatining samaradorligiga, sud qarorlarining barqarorligi va huquqiy aniqligiga, shuningdek, taraflarning protsessual huquqlarini to'liq amalga oshirish imkoniyatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Protsessual muddatlarning buzilishi ishlarning asossiz cho'zilishiga, qarorlarning qayta ko'rib chiqilishiga hamda sud tizimiga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelmoqda. Shu bois mazkur muammoni bartaraf etish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

Avvalo, protsessual muddatlar ustidan samarali nazoratni ta'minlash maqsadida raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur. Sud tizimida raqamlashtirish jarayonlari izchil davom etayotganiga qaramay, mavjud elektron platformalar vaqtini avtomatik nazorat qilish imkoniyatini to'liq

ta'minlamayapti. Bu borada "E-SUD" tizimi doirasida sudya, sud kotibi va protsess ishtirokchilarini muddatlar o'tganligi to'g'risida o'z vaqtida xabardor qiladigan, muddatlar buzilishi holatlarini avtomatik tarzda qayd etib boradigan va sudyalarning faoliyatidagi protsessual intizomni baholash imkonini beradigan avtomatik xronometrajchini joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday mexanizm inson omili bilan bog'liq xatolarni kamaytiradi va ishlarni belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishga yordam beradi.

Ikkinchi muhim yo'nalish – qonunchilik darajasida muddatlarni tiklash mezonlarini aniq belgilash zarur. Amaldagi Fuqarolik protsessual kodeksida muddatlarni tiklashga oid umumiy qoidalar mavjud bo'lsa-da, "asosli sabab" tushunchasining huquqiy jihatdan aniq talqin etilmaganligi sud amaliyotida ayni bir holatlarga turlicha baho berilishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham muddatni tiklash mumkin bo'lgan holatlar qonunda muayyan ro'yxat tarzida mustahkamlanishi va subyektiv sabablar – vakilning beparvoligi, harakatsizligi yoki noto'g'ri harakatlari – muddatni tiklash uchun asos bo'la olmasligi qat'iy belgilab qo'yilishi lozim. Bu sud amaliyotida yagona yondashuvni ta'minlaydi va huquqiy aniqlikni oshiradi.

Uchinchi yo'nalish sudyalarning ish yuklamasini optimallashtirish bilan bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, sudyalarga bir vaqtning o'zida haddan tashqari ko'p ish birlashtirilishi protsessual muddatlarning buzilishiga sabab bo'layotgan asosiy omillardan biridir. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ishlarni avtomatik va adolatli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish, murakkab ishlar uchun alohida vaqt normativlarini joriy etish, shuningdek, sudyalarning sonini oshirish yoki yordamchi xodimlar institutini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ish yuklamasining kamayishi sudyalarga ishlarni puxta va o'z vaqtida ko'rib chiqish imkonini beradi.

To'rtinchi muhim chora sifatida protsess ishtirokchilarining mas'uliyatini kuchaytirish

zarur. Amaliyotda shunday holatlar uchraydi-ki, ba'zi taraflar va ularning vakillari qasddan sud muhokamasini cho'zishga, dalillarni kechikib taqdim etishga yoki sudga kelmaslikka harakat qiladilar. Ushbu xatti-harakatlar sud ishlarini samarali olib borishga jiddiy to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, protsessni sun'iy ravishda cho'zishga qaratilgan xatti-harakatlar uchun javobgarlik choralari kuchaytirish, jarimalar miqdorini oshirish, advokatlarning protsessual majburiyatlarni bajarmaganligi uchun intizomiy mexanizmlarini takomillashtirish zarur. Bu sud jarayonida protsessual intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Beshinchi yo'nalish ekspertiza muassasi faoliyati samaradorligini oshirish bilan bog'liq. Ko'plab fuqarolik ishlarida ekspert xulosasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, uning belgilangan muddatdan kechikib taqdim etilishi sud muhokamasining cho'zilib

ketishiga sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan ekspertiza o'tkazishning qat'iy me'yoriy muddatlarini belgilash, asossiz kechiktirganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, ekspertiza muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, murakkab ishlar bo'yicha qo'shimcha mutaxassislarni jalb qilish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu chora-tadbirlar ekspertiza jarayonini tezlashtirish va sud ishlarini umumiy ko'rib chiqish muddatini qisqartirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlash sud tizimi faoliyati samaradorligi, odil sudlov va huquqiy barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Taklif etilayotgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi fuqarolik sudlovida protsessual intizomni mustahkamlash, sud qarorlarining sifati va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Council of Europe. (2022). *European judicial systems: Efficiency and quality of justice* [Report]. <https://rm.coe.int/1680304c4e>
2. Esanova, Z. N. (2024). *Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]*. TSUL Publ.
3. European Court of Human Rights. (2010). *Guide on Article 6 of the European Convention on Human Rights*. Strasbourg.
4. Gribov, Yu. Yu. (2007). *Rassmotrenie del v uproschennom poryadke v grazhdanskom i arbitrazhnom protsesse: sravnitelnyy analiz pravovykh sistem Rossii i Germanii [Simplified proceedings in civil and arbitration processes: A comparative analysis of the legal systems of Russia and Germany]* (Abstract of Doctoral dissertation). Tomsk State University.
5. Havel, B. F., & Sanchez, G. J. (2018). Procedural efficiency and judicial accountability. *Journal of Law and Courts*, 6(2), 221–245.
6. Kuchkarov, X. A. (2019). *Fuqarolik protsessida ishlarni soddalashtirilgan tartibda ko'rishning huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improvement of legal foundations for simplified civil procedure]* [Abstract of Doctoral Dissertation]. HTI.
7. Mamasiddiqov, M. (2014). *Fuqarolik protsessual huquqi [Civil procedural law]*. TSUL Publ.
8. Mitrofanova, M. A. (2013). *Elektronnye dokazatelstva i printsip neposredstvennosti v arbitrazhnom protsesse [Electronic evidence and the principle of immediacy in the arbitration process]* (Abstract of Doctoral dissertation). Saratov State Law Academy. <https://www.dissercat.com/content/elektronnye-dokazatelstva-i-printsip-neposredstvennosti-v-arbitrazhnom-protsesse>

9. Otcheskaya, T. I., & Afanasyeva, T. I. (2019). Usloviya vosstanovleniya sroka dlya apellyatsionnogo obzhalovaniya v grazhdanskom protsesse po khodataystvu litsa, ne uchastvovavshego v dele [Conditions for restoring the deadline for an appellate appeal in civil proceedings at the request of a person not involved in the case]. *Prologue: Journal of Law, (4)*, 31–39.
10. Porokhov, M. Yu. (2021). Otdelnye voprosy, vznikayushchie pri peresmotre sudebnykh aktov v grazhdanskom sudoproizvodstve [Selected issues arising during the review of judicial acts in civil proceedings]. In L. V. Voytovich (Ed.), *Peresmotr sudebnykh aktov po grazhdanskim i administrativnym delam: problemy normativnogo regulirovaniya, ofitsialnogo tolkovaniya i pravoprimereniya* [Review of judicial acts in civil and administrative cases: Problems of regulatory control, official interpretation, and law enforcement] (p. 171). Asterion. <https://nwb.rgup.ru/rimg/Nauka/Seminar%20and%20conf/17.06.2021/Sbornik%2017.06.2021.pdf>
11. Rakhmanova, M. A., & Shumov, P. V. (2019). Nagruzka na sudey i kachestvo pravosudiya. *Bulletin of Science and Practice, 5(10)*, 213–216. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/47/27>
12. Republic of Uzbekistan. (2018). *Civil Procedure Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/-3517337>
13. Semenova, Y. O. (2021). Procedural deadlines in civil law. *International Journal of Humanities and Natural Sciences, 9(2)*, 168–171.
14. Tsukanov, S. S. (2022). *Osobennost sudebnoy sistemy: printsip zakonnosti* [The Peculiarity of the Judicial System: the Principle of Legality]. *Proceedings of the All-Russian Scientific and Practical Conference*. Conference presentation (pp. 169–173). Khabarovsk.
15. Umarova, M. Kh. (2019). Problema sistemicheskogo narusheniya protsessualnykh srokov v grazhdanskom sudoproizvodstve [The problem of systematic violation of procedural deadlines in civil litigation]. *Young Scientist, (46)*, 207–208.
16. Zaychenko, E. V. (2013). *Informatsionnoe obespechenie v grazhdanskom i arbitrazhnom protsesse* [Information support in civil and arbitration proceedings] (Unpublished Abstract of Candidate Thesis). Lomonosov Moscow State University.
17. Zuckerman, A. A. S. (2025). *Zuckerman on civil procedure: Principles of practice* [Monograph]. Sweet & Maxwell. https://books.google.com/books/about/Zuckerman_on_Civil_Procedure.html?id=GeS60QEACAAJ

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2026-yil 1-son

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1)